

GRAFIKA BO‘YICHA “OILA” MAVZUSIGA OLINGAN MALAKAVIY BITIRUV ISHIGA ALOHIDA E‘TIBOR BERILISHINING AHAMIYATI



Narimon Sharipov

*Miniatyura va kitob grafikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
tasviriy san‘at fakulteti*

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I6-16>

Annotatsiya: Maqolada muallif grafika tasviriy sanati yo‘nalishida Bitiruv malakaviy ishlarida Oila mavzusiga katta e‘tibor berilishi va uning roli va ahamiyati haqidagi ma‘lumotlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: grafika, bitiruv malakavi ish, grafika, dastgohli grafika, chizgi, kompozitsiya, ustoz, talaba.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 1mart kuni mahalla va oila muammolarini o‘z vaqtida aniqlash hamda hal etish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Ma‘lumki, Prezidentning joriy 2020-yil 18-martdagi farmoni va qaroriga muvofiq, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilgan edi. Yig‘ilishda mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash, jinoyatchilikning oldini olish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha vazifalar muhokama qilindi.– Vazir va uning o‘rinbosarlari, viloyat, tuman va shahar hokimlari amaliy ishlar va natijadorlikka o‘tishi kerak. Buning uchun barcha resurs, vakolat va sharoit qilib berildi. Bundan keyin mas‘ullardan mahallabay aniq natija so‘raladi, – dedi davlatimiz rahbari. Har bir oila bilan manzilli ishlaydigan, ularni qo‘llab-quvvatlaydigan yangi tajriba yaratish zarurligi ta‘kidlandi. Mahallalar qoshida bo‘lg‘usi kelin-kuyovlarni oilaga tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etib, ularga psixologlar, obro‘li otaxon va onaxonlarni birlashtirish, “Ibratli oila” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Bu, albatta, isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Shuning uchun ham mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu asosda onalik va bolalikni himoyalash, oila institutini qo‘llab-quvvatlash, ayollarning og‘irini yengil qilish, ularning jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan oila muqaddasligi, oilaning tarbiyasi, madaniyati bu ota meros bo‘lib qolish va uni asrab avaylash yoshlarga o‘rnak bo‘lish, oilaning qanchalik muqaddas dargoh ekanligini kitobxonlarga illustratsiyalar orqali bo‘lsa ham yetkazib berish, ularning ongida oilaga hurmat va masuliyat tuyg‘usini oshirish dolzarb qilib olingan. Ijodiy va ilmiy izlanishning maqsadi “Oila” mavzusida ijodiy asar yaratish bo‘lib, ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo‘yilganligi ta‘kidlangan.

- Zamonaviy grafikada oila mavzusi talqini
- Oila- jamiyat bir bo‘lagining tavsifidir
- Dastgohli grafikada ijodiy ishning yaratilish bosqichlari

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Oila mavzusida ijodiy asar yaratgan rassomlarning ijodiy ishlari ko‘rib chiqilib tahlil qilingan. Adabiyotlardan oila to‘g‘risidagi mavzular o‘rganilgan va shular asosida muallif o‘ziga xos ijodiy kompozitsiyalar yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Mavzudagi ilmiy yangilik shundaki, zamonaviy va modernizm san‘atini birlashtirgan holda har xil islamiy naqsh va unsurlar ishtirokida chuqur falsafaga ega asar yaratishga erishilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida izlanishning ob'yekti oila mavzusi bòlib, izlanishning predmeti esa talaba tomonidan yaratilgan kompozitsiya hisoblanadi.

Mavzu bòyicha kompozitsiya yaratish jarayonida oila haqida ko'plab kitoblar, manbalar o'rganildi, ma'lumotlar ko'rib chiqildi. Bir qancha adabiyotlar o'rganilib ulardan tegishli nazariy xulosalar olingan. Izlanish jarayonida olingan ma'lumotlar dastgohli grafika sohasida muhim ro'l egallashi va keyingi kompozitsiyalar yaratilishi uchun muhim manba bòlib hizmat qilishini nazarda tutilgan.

Oila mavzusining grafika san'atidagi badiiy talqini.

Dunyoda shunday bir maskan borki, har birimiz unga intilamiz. Ishdan, mehnat jarayonlaridan shu oshiyon sari shoshamiz. Unda bizni chorlaydigan yaqinlarimiz mehri, umrimiz mazmuni bo'lgan jigargo'shalarimiz yurak tafti mujassam. Bu albatta oilamiz, xonadonimizdir. Oilani mustahkamlash nafaqat mamlakat, balki dunyo miqyosidagi ahamiyatli masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993-yil 20-sentyabrda 15-mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. Mazkur hujjatning qabul qilinishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri ham oilalar ahilligi va mustahkamligiga erishishdir. Ko'rishimiz mumkinki grafika san'atida ham oila mavzusida ko'plab rassomlarimiz ishlar yaratishgan.

Grafikada ishlatiladigan asosiy sohalardan biri kitob bo'lib, o'rta asrlarda vujudga kelgan xattotlik va kitob yaratish ishining san'atga aylanishi, qo'l yozma kitoblarni yozish va bezash san'at turi sifatida rivojlanishi oqibatida miniatyura san'ati rivojlangan, uning turli-tuman maktablari vujudga kelgan. Jahonning eng yirik muzeylarida jozibador bezatilgan qo'lyozma kitob namunalari saqlanadi. Rassomning kitob yaratish jarayonidagi mehnati, ayniqsa, poligrafiya sanoati vujudga kelganidan keyin katta ahamiyat kasb etdi, kitob mazmunini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirishda xizmat qiladigan rasmlarni endi fotografiya imkoniyatlaridan foydalanib ko'plab nusxalarda nashr qilish imkoni tug'ildi. Shunday qilib, kitob grafikasi va plakat kishilarga ma'naviy ta'sir ko'rsatishning kuchli quroliga aylandi. Rassom rasmdan tashqari kitobning muqovasi, sarvarag'ini bezaydi, turli bezak unsullarini yaratadi, Sanoatning barcha tarmoqlarining rivoji mahsulotlar reklamasidan tortib yorliq, mahsulot joylanadigan bezakli qutichalar, o'rov ashyolari yaratishni taqozo etdi, grafik rassomlarning grafika turlari bo'yicha ixtisoslashuvlarini talab qildi.

Grafik rassomlar orasida ko'pchiligi oila mavzudida ijodiy ish yaratishgan. Shular qatorida, rang tasvirchi rassomlar Mannon Saidov "Oila", Akmal Nur "Yosh oila", Yigitali Tursunnazarov "Ota onam", Baxodir Jalolov "Oila", J.Umarbekov "Hosil Oila" mavzusidagi asarlarning mualliflaridir. Kitob grafikasi va u bilan bog'liq dastgohli grafikasi ham jadal rivojlandi. Bu sohada yirik rassomlar ijod qilgan. XX-asr jahon grafikasining yetuk namoyandalari: Pikasso, J.Effel (Fransiya); R.Guttuzo, G.Mukchi (Italiya)da shu mavzuda asarlar yaratishgan.

O'zbekistonda grafika XX-asrda shakllandi va rivojlandi. Rassomlar I. Ikromov, V. Kaydalov, L.Abdullayev, T.Muhamedov, kitob bezaklari, Q. Basharov ilk kitob kompozitsiyalari va ajoyib linogravyura asarlari bilan o'zbek tasviriy san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. O'zbek grafikachilari shu tasviriy san'at turining barcha sohalari (akvarel, litografiya, linogravyura, ksilografiya va boshqalar)da samarali ijod qilib, mavzu jihatdan rang-barang (tarix, zamonaviylik, ekologiya va boshqalar) asarlar yaratmoqdalar, jahon va o'zbek mumtoz adabiyotiga, sharqning buyuk arboblari, yozuvchi va olimlari siymolariga asarlar ishlamoqdalar. Kitobat san'atida ilyustrasiyalar muhim o'rin olgan bo'lib, u kitobning yanada to'liqroq mazmunini yoritishga, yanada jiloli ko'rinishiga turki bo'ladi. Ilyustrasiya (lotincha. Ilyustratio-yoritish, ko'rgazmali tasvirlash)-tasviriy san'atning adabiy asar (kitob, jurnal, gazeta va boshqalar)ning obrazli talqini bilan bog'liq.

Sunday qilib, oila jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlar bilan bevosita bog'liq ravishda amalga oshgan. Jamiyat hayotida bo'lib turadigan o'zgarishlar, kishilarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, milliy ahloq me'yorlari, psixologiyasi, diniy e'tiqodlari ham oilaviy munosabatlarning ahloqiy, huquqiy, ijtimoiy mezonlariga ta'sir ko'rsatgan. Oila muammosiga bag'ishlangan masalalarni o'rganar ekanmiz, unda oilaviy munosabatlarning

huquqiy, axloqiy asoslari, ota-onalarning jamiyat va farzandlari oldidagi burchi masalasi doim olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Shuningdek, yoshlar oilaning buyuk ma'naviyat, qadriyat, burch va mas'uliyat ekanini anglab yetmoqlari zarurligi, yigit va qizlar mustahkam oilani shakllantirish borasidagi milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz haqida yoshligidan to'la va to'g'ri tasavvurga ega bo'lishlari lozimligini takidlaganlar. Chunki, oiladagi hayot, ota-onaning bir-biriga munosabati ham ana shunday tushuncha va tasavvurlar shakllanishining asosiy shartlaridandir.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida" 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishning ko'lami kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasidaamalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.¹

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saramjon-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi. Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinlar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlarig qon-qarndosh, nikoh yoki farzand asrab olish bilan bog'liq bo'lgan va birga yashaydigan yoki umumiy rishtalarga ega bo'lgan shaxslardan tashkil topgan ijtimoiy birlik. Bu butun dunyo jamiyatlarida mavjud bo'lgan asosiy institut bo'lib, uning a'zolarining ijtimoiy, hissiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Oila tushunchasi turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin va turli tuzilmalar va munosabatlarni qamrab olishi mumkin. Oila haqidagi an'anaviy tushuncha ko'pincha juftlik va ularning biologik farzandlarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, oilalar turli shakllarni olishlari mumkin. Ba'zi misollar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Yadro oilasi: Bu turmush qurgan yoki birga yashaydigan er-xotin va ularning biologik yoki asrab olingan farzandlaridan iborat oilaviy birlikdir.

Kengaytirilgan oila: Katta oilaga yadro oilasidan tashqari qarindoshlar, masalan, bobo-buvilar, xolalar, amakilar va amakivachchalar kiradi, ular birga yashashlari yoki yaqin Oilalar, shuningdek, bir-biriga yaqin do'stlik, tanlangan jamoalar yoki odamlar bir-biriga hissiy yoki amaliy yordam ko'rsatadigan qo'llab-quvvatlash tarmoqlari orqali tuzilishi mumkin.

¹ Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1991. Ochiya Bursev, Akmal Saidov.

Oila bo‘linmalari odatda o‘z a‘zolariga sevgi, qo‘llab-quvvatlash, g‘amxo‘rlik va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish kabi bir nechta funktsiyalarni bajaradi. Ular avlodlar o‘rtasida tegishlilik, o‘ziga xoslik va davomiylik tuyg‘usini taklif qiladi. Madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va bilimlarni avlodlardan avlodga o‘tkazishda oilalar ham muhim o‘rin tutadi. Shuni ta’kidlash kerakki, oilaning ta’rifi va tushunchasi shaxslar Oila tushunchasi haqiqatan ham turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin, chunki unga madaniy me’yorlar, e’tiqodlar, qadriyatlar va ijtimoiy tuzilmalar ta’sir qiladi. Bu yerda oila tushunchasi turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin bo‘lgan ba’zi usullar mavjud: Oila tuzilmalari: oilalarning tuzilishi har xil bo‘lishi mumkin. Ba’zi madaniyatlar yadroviy oilalarga (ota-onalar va ularning farzandlariga) urg‘u bersa, boshqalari katta oilalarga, jumladan, birga yoki yaqin joyda yashaydigan bobo-buvilar, xolalar, amakilar va amakivachchalarga ko‘proq e’tibor berishadi. Nikohning roli: nikohning ahamiyati va maqsadi har xil bo‘lishi mumkin. Ba’zi madaniyatlarda nikoh birinchi navbatda ikki shaxs o‘rtasidagi ittifoq sifatida ko‘riladi, boshqalarida esa bu ikki oila yoki jamoa o‘rtasidagi ittifoq hisoblanadi. Qarindoshlik tizimlari: Turli madaniyatlarda oilaviy munosabatlar va majburiyatlarni belgilaydigan alohida qarindoshlik tizimlari mavjud. Misol uchun, ba’zi madaniyatlar ota-onalik tizimlariga amal qiladi, bu erda oilaviy rishtalar va meros otaning nasli orqali kuzatiladi, boshqalari esa matrilineal tizimlarga amal qilib, naslni onaning naslidan kuzatib boradi. ²

XULOSA

Bugungi kunda jamiyatimizning bir bo‘lagi hisoblangan oilalar soni kundan kunga ko‘payib boryapdi. Oila bu mehr maskani birinchi vatan hisoblanadi. Vatan aslida oiladan boshlanadi Shuni ham aytishimiz joizki bugungi kunda yoshlarning kam kitob mutola qilish ularda oila tushunchasi yo‘qligi ilim salohiyatining kamligi yuzasidan oilalar ajrashishi ham ko‘paymoqda bularning barchasi bu yoshlarning uquvi yo‘qligidan kelib chiqadi deb tushunaman. Hozirgi yoshlarda oilaga bo‘lgan muhabbat uning oldidagi vazifa burjlarini to‘la qonli ado etish va oilalarning ajralishi va buzilishini oldini olish maqsadida dastgohli illustratsiyalar chizildi. Har bitta yosh avlodga oilaning muqaddasligini unga mehr mmuhabbatda bo‘lishni , oila a‘zolariga muruvvatli bo‘lishlarini yoshligidanoq qulog‘iga uqturib borish kerak deya bilaman. Shular qatorida yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni oshirish va yangi kitoblarga hikoya romonlarga kitobxonning tasavvurida yaxshi ta’surot qoldirish yo‘lida grafik rassomlar o‘ziga xojanrlarda ijod faoliyatini olib borishlari kerak deb ham tushunaman. Zero kitob o‘qigan har bitta kitobxon mustaqil fikrga va izzat hurmatga sazovor bo‘ladi. Bugungi hayotimizda ko‘pchilik kitobning o‘rni o‘zgardi, endi kitob o‘qish uchun vaqt sarflash no o‘rin, teatr, kino, gazeta, jurnallar kitoblarning vazifasini bajarib ularning o‘rnini butunlay egalladi deb hisoblashadi. Informatsiyalar haddan ziyod ko‘payib, har daqiqada yangilanib, internet butun insoniyat ongini egallab, hech kimning zerikishga vaqti qolmagan asrda kitoblarga joy bormikan? Bunday savol o‘z – o‘zidan hammaning hayoliga kelishi aniq. Ayniqsa bugungi yoshlarning ko‘pchiligi bizning davr bir joyda o‘tirib kitob varaqlaydigan davr emas deb ta’kidlashadi. O‘ziga xos tarbiya vositasi bo‘lgan kitoblar, kixonxonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Bilamizki, kitob inson fantaziyasi va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E’tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo‘ylik, halollik tuyg‘ulari ustuvor bo‘ladi va har bir kitobxon ongida yaxshi ta’surot qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4 mart kuni Toshkent shahridagi «Navro‘z» restoranida bo‘lib o‘tgan tadbirda mamlakat xotin-qizlarini 8 mart bayrami bilan tabrikladi. Tabrik matni O‘zA tomonidan taqdim etilgan.
2. Oila charog‘boni, jamiyat ko‘rki».
3. Grafika Rizouddin ibn Faxriddin,
4. Oila, T., 1991. Ochiya Bursev, Akmal

²

[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Oila%20psixologiya%20\(G‘.Shoumarov%20tahriri%20ostida\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Oila%20psixologiya%20(G‘.Shoumarov%20tahriri%20ostida).pdf)